

NUTQIY MADANIYAT KO'NIKMALARI

Xudayorova Ozoda

Sharipova Zarina

ANNOTATSIYA

O'qituvchining nutq faoliyatidagi o'rni belgilangan qoidalarga asoslangan bo'lishi lozim. O'qituvchida eng avvalo nutq madaniyati yuksak darajada bo'lmog'i lozim. Nutqiy madaniyat tarbiyasi bilan maktabdagi hech bir istisnosiz barcha fanlar bilan bevosita va bilvosita bog'liq. Bunda ovoz ham ahamiyatlidir. O'qituvchi nutqi jarangdor, aniq turli shevalarga xos so'zlardan xoli bo'lishi kommunikativ qobiliyati yuqori darajada bo'lmog'i lozim. Nutq faoliyati nafaqat o'qituvchida balki boshqa kasb egalarida ham mukammal rivojlangan bo'lishi kerak. Dunyodagi har bir kasbni egallashda nutq madaniyati yuqori darajadagi quroldir. So'zlayotgan jarayonda ham nutq madaniyatiga rioya qilgan holda so'zlansa nutq go'zal va jozibali chiqadi.

Kalit so'zlar: o'qituvchining nutqiy faoliyati, nutq madaniyati, kommunikatsion nutq, kommunikativ qobiliyat

Insonning ma'naviy kamolatga erishuvida, jamiyatning madaniy ma'naviy rivojlanishida ona tilining o'rni nihoyatda muhimdir. Har bir shaxsning bilim olishidagi boshlang'ich mezon bu maktabgacha ta'lim muassasalaridir, undan keyingi bosqich maktab oliygo'h hisoblanadi. Shularni hisobga olgan holda nutq faoliyatini ham o'rnini belgilash lozim. Bunda o'qituvchi nutqiga qo'yiladigan talablar bilan tanishib chiqish darkor. O'qituvchi nutq so'zlayotganda o'zini qanday tutishi lozimligini bilgan holda nutq so'zlagan notiq nutqi ravon va barchaga birdek xush yoqadi. Har bir nutq so'zlayotgan notiq ona tili haqida yuqori bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Til milliy ma'naviyat madaniyat va ma'rifatning hira tortmas ko'zgidir. Hadisi shariflarda: "Kishilarning zeb-u

ziynati uning go'zalligi tilidadir" dedilar. Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur nutqning sodda, ravon va aniq bo'lishiga nutqiy madaniyatning yuqori va aniq bo'lishiga alohida etibor qartagan.

Nutq madaniyati jamiyat madaniy ma'naviy taraqqiyotining millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Haqiqiy manodagi ma'naviy nutq shaxs madaniy saviyasini favqulotta muhim unsurlardan biridir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ma'naviy- ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb, e'tirof etilgan. Bungungi kunda nutq madaniyati masalalari o'qituvchining nutqiy madaniyati mahoratini farzandlarimizning nutqiy madaniyat ko'nikmalarini oshirish ta'lim jarayonining barcha jarayonlarda madaniy nutq ko'nikmalarini yetarli darajada nazarda tutish har qachongidan dolzarbdir.

Dunyoda turli tuman kasblar, bir biridan turfa hunarlar bor. Ularning har birida o'ziga xos ish qurollaridan foydalaniladi. Masalan dehqonlarning asosiy ish quroli ketmon. Duradgorniki tesha. Jarrohniki tig', tikuvchiniki igna.

Dehqon ketmoni bilan taqir yerdan bog' barpo qiladi, go'zallik yaratadi. Yo aksincha tajribasi bo'lmasa yerni umriga zomin bo'ladi. Ketmon o'tkir bo'lmasa, dehqonning ozi ketmon urish hadisni olmagan bo'lsa, oltin tuproqning ham, xomtama dehqonning ham holiga voy bo'ladi. Faoliyatning asosiy quroli til bo'lgan kasblar ham borki, ularning boshida o'qituvchilik turadi. Qaysi fan mutaxassisi bo'lishidan qat'iy nazar, o'qituvchi tildan mohirona foydalanish hadisini olmagan bo'lsa demakki chinakam madaniy nutq malakasini egallamagan bo'lsa, darsdagi nutqi nochor va rangsiz bo'lsa, uning bilimi chuqur va tugal bo'lmasin 45 daqiqalik fursat uning o'zi uchun ham o'quvchi uchun ham azob.

Chet tilida shirador, aniq, lo'nda fikr tuza olish malakasi va mashg'ulot tashkil etish mahorati chet tili o'qituvchilari uchun ham boshqa fan o'qituvchilari uchun ham birdek ahamiyatga ega. O'qituvchining nutqi qanchalik jarangdor bo'lsa o'quvchilarni ham o'ziga jalb eta oladi. Endi o'qituvchining faoliyatida nutq haqida gap ketar ekan, nutqning o'rni qanchalik muhimligini o'rganamiz. O'qituvchi va o'quvchi dars jarayonidagi ular nutqi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va farqlar mavjud. O'qituvchi bu ko'nikma va malakaga ega pedagog hisoblanib u nutq madaniyatiga rioya qilgan holda so'zlashi kerak. Nutqiy madaniyat haqida gap

ketar ekan nutqning madaniyligi demakki ta'sir doirasi quvvatini ta'sir etadigan tog'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, jo'yalilik, boylik, soflik kabi bir qator kommunikativ sifatlar mavjud. Ana shu sifatlarning barchasini o'zida mujassam etgan nutq madaniy hisoblanadi, va o'qituvchi ana shu sifatlarga amal qilishi kerak.

Nutq bu, og'zaki kommunikatsiya, ya'ni til yordamida munosabat qilish demakdir. Ijtimoiy tajribada biron bir mohiyatni anglatadigan so'zlar og'zaki kommunikatsiya vositasi hisoblanadi. O'qituvchining nutqi ravon bo'lishi, o'qituvchining fikrlar bayoni aniq, tushunarli bo'lishi, nutq jarayonida qo'l, ko'z, imo ishoralardan foydalanishda ularning uzviy bog'liqligiga rioya qilish, nutq orqali bolalar ongiga ta'sir qilish, qalbi xatti harakatiga pedagogik ta'sir ko'rsatish, nutq talaffuzi orqali o'quvchilar bilan muloqotga kirishish jarayonida ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, nutq jarayonida o'qituvchi uslubiy, stilistik xatolarga yo'l qo'ymaslik, o'qituvchi nutq jarayonini mazmunli tashkil eta olishi, muloqat jarayonida bolalarni tarbiyalab borishi, ongi xulqi, insoniya fazilatlarini tarbiyalab borishi kerak va bu kabi sifatlar o'qituvchi darsini mazmunli tashkil etishdagi eng asosiy va zaruriy fazilatlaridir. Hozirga zamon pedagogika fani o'qituvchining pedagogik mahorati tizimida pedagogik texnikaning ro'li beqiyos deb biladi. Chunki u o'qituvchiga o'z gavdasini tuta bilish (mimika, pantomimika) xis tuyg'ularni (emotsiyasini boshqara olish, ishtiyoq qobiliyatlar, nutq texnikasini egallash jarayonida qo'llash yo'llarini tushuntiradi. Maktab o'quvchilarida o'quv mexnatiga ijobiy munosabat uygotib, mexnatning xakikiy ijodga, kuvonch manbaiga aylanishiga kumaklashish kerak.

O'qituvchi o'z tarbiyalanuvchilari bilan ko'proq auditoriyada, darsda, shuningdek sinfdan tashkari paytda nutqiy muloqotda bo'ladi. Uning nutqi ilmiy – pedagogik mazmun kasb etadi. Bunday nutqda ilmning turli soxalariga oid qoidalar, atamalar, xulosalar aks etadi. Uning o'ziga xosligi tarbiyachi ekanligi bilanharakterlanadi.

O'qituvchi nutqining pedagogik va psihologik asoslari. Har bir o'qituvchi nutqiy faoliyat turlari, nutq apparati, nutqning vazifalari, nutqning uslubiy turlari , o'qituvchi nuqining sifatlarini, nurq texnikasi asoslarini, pedagogik nutq muloqotning o'ziga xos xususiyatlarini va bashqalarni mukammalrok bilishi kerak.

Shu bilan birga o'qituvchi nutqining o'ziga xos xususiyatlarini, notiqlik mahoratini, nutq madaniyatining pedagogik – psixologik asoslarini chuqur bilishi kerak.

Nutq ta'lim – tarbiyaning eng muxim vositasidir. O'qituvchi notiqlik bilimlarini o'quvchilarga nutq orqali berishda pedagogika va psixologiya fanlarining asoslariga, qonuniyatlariga tayanadi. Notiqlik mahorati o'qituvchidan pedagogika va uning asosiy qonuniyatlarini, printsiplarini bilishni va ularni dars, darsdan tashqari mashg'ulotlarda, nutq jarayonida to'g'ri tadbik eta bilishni talab etadi.